

OLIV TA'LIMDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI

Gulbahor Eshmurodova

Pedagogika fanlari nomzodi, dosent

Axborot texnologiyalar va menejment universiteti

Berdiyaroova Mahfuza

Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi yo'nalishi 1-kurs

magistranti, Axborot texnologiyalar va menejment universiteti

O'zbekiston Respublikasi, Qarshi sh.

Annotasiya: *Oliy ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'qituvchidan katta mahoratni talab qiladi. Pedagogik texnologiya turlarini tanlash – shakllantirilishi ko'zda tutilgan bilim, ish-harakat usullari, shaxsiy fazilatlar, mashg'ulotlarning tashkiliy shakli, qo'llanilayotgan metodlar, vositalar va shu kabi ko'plab omillarga bog'liq bo'ladi. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimi muassasalarida pedagogik texnologiyalarni qo'llash katta samara bermoqda.*

Kalit so'zlar: *oliy ta'lim, ta'lim innovatsiyalari, ta'lim metodlari, o'qitishning yangi usullari, ta'lim samaradorligi, ta'limda axborot texnologiyalari.*

Kirish. Oliy ta'lim tizimlarida pedagogik texnologiyalardan foydalanib, oldimizga qo'yilgan maqsadga va natijalarga erishishdir. Ta'lim jarayonini tashkil etishda salmoqli o'rin egallagan muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash. Mazkur darslarning o'ziga xos jihati dars davomida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarga asoslanadi.

Oliy ta'lim tizimi muassasalarining ta'lim-tarbiya jarayonida, o'qib o'rganishda va mustaqil ta'lim olishda uzluksizlik nafaqat talabalar uchun, balki o'qituvchilar uchun ham shart. Chunki ta'lim berish bo'yicha dastlabki nazariy va amaliy ko'nikmaga ega bo'lmagan yosh mutaxassislar sinab ko'rish va xatolarga yo'l qo'yish uslubida ish ko'rishga majbur bo'lishadi.

Shaxs axloqini xarakterlaydigan belgilardan biri – mas'uliyatdir. O'qituvchining mas'uliyati – mas'uliyat tushunchasining butun mazmunini saqlagan holda muallimning faoliyati va ta'lim-tarbiya jarayonining aniq vazifalarini ham o'z ichiga oladi.

O'qituvchi shaxsi zimmasiga bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish mas'uliyati yuklanadi. Muallim o'quvchiga chuqur nazariy bilimlar berishi, uni hayotga, mehnatga tayyorlashi lozim.

Buyuk Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida o'qituvchi roliga katta e'tibor bergan. O'qituvchi rostgo'y, dono, odil, ozoda kiyinadigan, xushmuomala bo'lishi kerak.

Ular oldiga bir qancha talablar ko'yiladi:

- o'qituvchi o'quvchilar bilan muomalada bosiq bo'lishi kerak;
- o'qituvchi o'quvchilar ta'limni qanday o'zlashtirayotganini kuzatib borishi zarur;
- o'qitish jarayonida o'qituvchi har xil usullarni qo'llashi lozim;

-o‘quvchilarni o‘tilgan mavzu materiallarini takrorlashga majbur qilish orqali fanga qiziqtirishi kerak;

-har bir fikrni haqiqat bilan tasdiqlanishi, o‘quvchilarda hissiyot uyg‘otadigan bo‘lishi lozim.

Pedagogik texnologiya tushunchasiga bir qancha etakchi olimlari o‘z ta’riflarini bergan.

Ulardan: B.L.Farberman «Pedagogik texnologiya – bu o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘z oldiga ta’lim shakllarini samaradorlashtirish vazifasini qo‘yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o‘zaro aloqasini hisobga olib, bilimlarni yaratish, qo‘llash va belgilashning tizimli metodidir» degan ta’rifni bergan.

Oliy ta’lim tizimida ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘qituvchidan katta mahoratni talab qiladi.

Pedagogik texnologiya turlarini tanlash – shakllantirilishi ko‘zda tutilgan bilim, ish-harakat usullari, shaxsiy fazilatlar, mashg‘ulotlarning tashkiliy shakli, qo‘llanilayotgan metodlar, vositalar va shu kabi ko‘plab omillarga bog‘liq. Masalan, o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o‘quv materialiga nisbatan tanqidiy yondoshish malakalarini shakllantirish hamda mahsuldor o‘quv bilish faoliyatlarini tashkil etishda integrativ dars, ishchanlik yoki roli o‘yinlar, o‘quv treninglar, munozara, muhokama, savol-javob, evristik suhbatdan foydalanish tavsiya etiladi. Mazkur vaziyatda ta’lim-tarbiya metodlari qo‘yilgan maqsad bilan albatta mutanosib bo‘lishi kerak.

Ta’lim jarayonida salmoqli o‘rin egallagan muammoli (aqliy hujum) dars, munozarali (ilmiy munozarali va erkin fikrlash) darslari muammoli ta’lim texnologiyasiga misol bo‘la oladi.

Mazkur darslarning o‘ziga xos jihati dars davomida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarga asoslanadi.

Muammoli ta’lim deyilganda, o‘qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo talabalarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko‘nikma va malakalarni ijodiy o‘zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta’lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi.

Muammoli ta’limning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog‘liq:

- 1.O‘quv materialini muammolashtirish;
- 2.Talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish;
- 3.Ta’lim jarayonini o‘yin, mehnat faoliyati bilan uyg‘unlashtirish;
- 4.O‘qituvchi tomonidan muammoli metodlardan o‘z o‘rnida va samarali foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;
- 5.Muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan muammoli savollar zanjirini tuzish va mantiqiy ketma-ketlikda talabalarga bayon etish.

Muammoli metodlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, talabalarning muammoni hal etish, murakkab savollarga javob topish jarayonida alohida ob’ekt, hodisa va qonunlarni tahlil qilish ko‘nikmalari va bilimlarni faollashtirishga asoslangan faol bilish faoliyatini taqozo etadi.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar:

-talabaga notanish bo'lgan faktning mavjud bo'lishi;

-vazifalarni bajarish uchun talabaga beriladigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi.

Muammoli o'qitish jarayonida talabalarning mustaqillik roli reproduktiv o'quv usullariga solishtirib qaraganda ancha samarali bo'ladi.

Muammoli o'qitishning maqsadi talabalar bilan ishlash jarayonida ta'lim-tarbiya masalalari, muammo va savollariga javob qidirish, ularni hal etish yo'llari bilan yangi bilimlarni o'zlashtirishni, talabalar o'quv faoliyatida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish va hal etish bo'yicha o'qituvchilar ularda qiziqish uyg'ota olishdan iborat.

Muammoli ta'lim bir qancha ijobiy xususiyatlarga ega. U talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Bu esa bugungi axborotlar oqimi davri uchun o'ta mushim. Fikrlash refleksi, ijodkorlikni va qiziqishni rivojlantiradi. O'zlashtirilgan bilimlarni puxta bo'lishiga yordam beradi. Talabalarni faollashtiradi va kasbiy tayyorgarlikni mustashkamlaydi. Ammo bu ta'limning bir muncha chegaralanganlik tomonlari sham yo'q deb bo'lmaydi.

Muammoli ta'limni tashkil etish va o'tkazish bir muncha ko'proq vaqt talab etadi. Barcha mavzularni bu usuldan foydalangan sholda tashkil etib bo'lmaydi. Talabalar soni chegaralanadi. O'qituvchi differensial va individual yondashuvni ishlab chiqmasa, ba'zi passiv talabalar chetda qolib ketadi.

Professor N.Azizxo'jaeva muammoli vaziyatning ma'nosini quyidagicha ta'riflagan, ya'ni muammoli vaziyat talabalarga ma'lumotlar, bilimlar bilan yangi dalillar, hodisalar, vaziyatlar orasidagi dialektik qarshiliklar bo'lib, ularni tushunib olish uchun ilgari olgan bilimlarining etishmasligidir. Bu qarama-qarshiliklar (tushunmovchiliklar) ijodiy bilimlarni o'zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchi muammoli ta'lim tizimida talabalar o'quv-izlanish faoliyatini shunday tashkil etadiki, ularning diqqati yuzaga kelgan qiyinchilik va kamchiliklarni hal etishga, turli axborotlarni mustaqil tahlil qilishga, echimini topish, umumlashtirish va xulosalar chiqarishga, olgan bilim va malakalarini keyingi duch keladigan vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilgan bo'lishi lozim. Demak, buning natijasida talabalarda mustaqil fikr yuritish, bilim olish, yangidan-yangi maqsadlarni qo'yish, yangicha fikrlash yo'llariga o'rganish hamda tafakkurining rivojlanish qobiliyatining shakllanishiga imkon beradi. Talabalar muammoli ta'lim jarayonida o'quv materiallarini muammoli vaziyat sharoitida o'rganishlari, tegishli ma'lumotlarni mustaqil tahlil qilishlari, berilgan o'quv masalalarini farazlarini oldinga surib, ularni isbot qilish yo'llari bilan echishlari, ta'lim jarayonini o'zlashtirishga aql bilan harakat qilishlari ularning intellektual faoliyatlarini oshiradi.

Muammoli darslarda o'qituvchining faoliyati, avvalo mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv muammolarini aniqlash, muammoli vaziyatlar tizimini yaratish, talabalar oldiga o'quv muammolarini yuqori ilmiy va metodik saviyada qo'yish, darsda mazkur o'quv muammolaridan samarali foydalanishga erishish, talabalar faoliyatini muammolarni hal etishga yo'naltirishdan iborat bo'ladi.

Hozirgi zamon muammoli darslarning didaktik maqsadi quyidagilardan iborat:

1.O‘quv muammolarini hal etishda talabalar tomonidan avval o‘zlashtirgan bilimlarini ijodiy qo‘llab, yangi bilimlarni egallash ko‘nikmalarini;

2.Bilimlarni ijodiy o‘zlashtirish va amalda qo‘llash malakalarini;

3.Izlanuvchanligi, qiziqishi, motivlari, mantiqiy tafakkuri, ijodiy faoliyati, aqliy kamoloti, zakovatini rivojlantirishdan iborat.

Muammoli o‘qitish samarali, maqsadga muvofiq bo‘lishi uchun uni o‘quv jarayoni, o‘quv-tarbiya ishlari asosining bir qismiga aylantirish zarur. Muammoli ta'lim yordamida talabalarda o‘quv muammolari va mutaxassislik masalalarini echishga tadqiqiy yondoshish, mustaqil tarzda o‘rganish mahoratini shakllantirishni tarbiyalaydi.

Xulosa. Shunday qilib, oliy ta'limtizimi o‘qituvchilari pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta'lim-tarbiya jarayonini shakllantirishi, darslarni to‘g‘ri rejalashtirishi, yangi tushunchalar kiritishi, ularning natijalarini baholashga yordam beradi. Bu «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning «Pedagogik texnologiyadan foydalanib, o‘quvchilarni o‘qitishni jadallashtirish» talablariga javob beradi.

Muammoli ta'lim talabalar bilim tizimlari va aqliy hamda amaliy faoliyatlarida samarali o‘zlashtirishga yordam beradi, o‘zlashtirgan yangi bilimlaridan kelajakdagi vaziyatlarda unumli foydalana olishni, ta'lim muammolarini echa bilish, mustaqil izlanishga o‘rgatish, ijodiy tajribaga ega bo‘lish va uni rivojlantirish, ta'lim jarayonining vazifalarini tahlil qilish, muammoli ta'limni aniqlash imkoniyatlarini ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Eshmurodova G.X. Maktab-internatlarda bolalar rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari, 2-son, 2024. International journal of science. Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

<http://www.worldlyjournals.com/> 18 bet.

2.Eshmurodova G.X.Problems of Training Pedagogues and Personnel in Orphanages of Uzbekistan in 1917-1941. Volume:3 Issue:10 | 2024. BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. ISSN: 2835-3579 . Volume:3 Issue:10 | 2024 www.bjisrd.com. 242-247 bet

3.Eshmurodova G.X. 1917-1941-йилларда Ўзбекистон етимхоналарида педагог-кадрлар тайёрлаш муаммолари. Impak faktor 9.9. Kielce 2024 . Miasto Przyszłości. <https://www.miastoprzyszlosci.com/>

ISSN-L:2544-980X . 1073-1078

4.Eshmurodova G.X. Mehribonlik uylarida pedagogik muammolarning tadqiq etilishi 2024 йил № 5 сони Ўзбекистон республикаси мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий-тадқиқот институти Қорақолпоғистон филиали “Муғаллим ҳам узликсиз билимлендириў” илмий методик журналининг 2024 йил № 5 сони. 15 бет

4. Eshmurodova G.X. Bola ma'naviyatini rivojlantirishda oilaning o'рни. Termiz. 2024-yil. 5-noyabr

O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Termiz davlat universiteti “Uzluksiz ta’lim tizimining ustuvor vazifalari: muammolar, yechimlar va istiqbollar” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya. <https://anjumanlar.uz/conference/347>. <https://tersu.uz/news/view/2313>. 28-34 bet.

5.Eshmurodova G.X. Oilada axloqiy me’yorlarni shakllantirishda motivatsiya va ma’naviy o’sishning psixologik omillari. Termiz. 2024-yil. 5-noyabr. O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi termiz davlat universiteti “Uzluksiz ta’lim tizimining ustuvor vazifalari: muammolar, yechimlar va istiqbollar” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya. <https://anjumanlar.uz/conference/347> <https://tersu.uz/news/view/2313>. 34-37 bet

6.Eshmurodova G.X. Methodology of Spiritual Education in Primary Education. Published: 19 Dec 2024

American Journal of Alternative Education. ISSN: 2997-3953 (Online) Vol. 1, No. 10, Dec 2024, Available online at: <https://scientificbulletin.com/index.php/AJAE>. <https://scientificbulletin.com/index.php/AJAE/article/view/503>

7. Eshmurodova G.X. Spiritual Qualities of Primary School Students Volume 02, Issue 12, 2024 ISSN (E): 2994-9521. Excellencia –international multi-disciplinary journal of education. <https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje/article/view/2877/3333>

8.Eshmurodova G.X, Berdiyaroova M.I. Methodology of Spiritual Education in Primary E;IF (импакт-фактор)12,38 / 2024; American Journal of Alternative Education ISSN: 2997-3953 (Online) Vol. 1, No. 10, Dec 2024, Available online at: <https://scientificbulletin.com/index.php/AJAE>; 113-116 betlar

9.Eshmurodova G.X, Berdiyaroova M.I. Spiritual Qualities of Primary School Students;IF (импакт-фактор)12,43 / 2024 EXCELLENCIA: INTERNATIONAL MULTI-DISCIPLINARY JOURNAL OF EDUCATION <https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje>290-294 betlar